Атоқли адиб Асқад Мухторнинг «Чодирхаёл» ҳикояси (1988 йили эълон қилинган) қаҳрамонлари ўзларининг фикрсизликлари билан… ўзгаларни фикрлашга, фикрий фаолликка ундайдилар. Ўз инсоний қадр-қимматини англаб етмаслик, ҳаётдаги ўрнини фарқлай олмаслик, сурункали фикрий танбаллик одамни маънавий тубанлик сари тортиб кетаверади. Ҳикоядаги етти қаҳрамоннинг қисмати шу, уларнинг ҳатто исм-шарифи ҳам йўқ: Биринчи, Иккинчи, Учинчи… Еттинчи, холос. Демак, фикрсиз одамга исм ҳам шарт эмас, у жисман мавжуд, лекин инсоннинг том маънодаги мўътабар зотлиги унинг тафаккур соҳиби эканлигида акс этади…(Хуршид Дўстмуҳаммаднинг «Фикр шоирининг ҳикоялари» мақоласидан).



Асқад Мухтор

ЧОДИРХАЁЛ

у ерда ҳамиша шовуллаб тупроқ тўкилиб туради. Тепалик ўйилган жойда тикка девордан, белкурагу кетмондан, шўр босган елкалардан, чўкич зарбидан, кажава замбиллардан шитирлаб тўкиларди. Бу шовуллаш ўн беш-йигирма йил наридан келаётгандай, бўғиқ, доим бир маромда аллалаб эшитилади. Тепалик ўйилиб, қўрадай катта ковак ҳосил бўлган, ичи нимқоронғи, ҳурмат тахтасининг тепасида ёниб турган иккитагина лампочка билан сал ёришиб турибди. Бу ерда иш табиатнинг

инжиқликларига қарамай, қору қиров, селу жалада ҳам, совуқда ҳам, иссиқда ҳам тинмай давом этади, тупроқ тўкиладиган жаргача сўқма юл яхши шиббаланган, ўша ердан тепаликнинг қовжироқ шумгияю шилви, бужғун чўкиртаклари чирмашиб ётган сирти бемалол кўринади.

Ишлаётганларнинг бири энг ичкарида, орқа девордан тупроқни метин билан ўйиб бериб турибди. У ўрта бўйли, қорачадан келган бақувват одам, ҳар зарбидан роса ярим замбил тупроқ тўкилади, кўзлари тимқоралигидан ғира-ширада ҳам йилтиллаб кўринади. Иккинчиси тупроқни бел билан замбил кажавасига ташлаб турибди. Ёруғлик орқадан тушгани учун, миёнагина тиқмачоқ гавдаси чодирхаёлнинг қўғирчоқ соясидек липиллаб кўринади, яқинига борган одам қорачўғларида ишга астойдил ихлосни ўтини пайқайди.

Улар ўзи етти киши, иккитаси, яъни учинчи ва тўртинчиси замбилда. Булар ака-ука бўлса керакми, бир-бирига жуда ўхшаш: қорачадан келган юзлари ҳам, пишиқ-пухта жуссалари ҳам қуйиб-қўйгандай. Бир-бирларини кўз қарашларидан тушунишади. Қорачўғ йилт этдими — «кўтар!» дегани, билинар-билинмас им қоқди-ми — «ағдар!» дегани. Тупроқ тўкиладиган жойга мокидай қатнаб, сўқма йўлни шулар шиббалаган.

Бешинчиси ёруғроқда, кираверишдаги эски ёзув столи ёнида… ҳа, дарвоқе. тўхтанг-чи, яхшиси бунисини олтинчи деяйлик. Чунки у… Бешинчиси эса кетмонда. У бошқалардан шу билан ҳам ажралиб туради, ўйилган ғорнинг ерини қириб текислайди, тупроқдан, думалаган тошу кесаклардан тозалайди. Ўзи кексароқ бўлса ҳам

ҳали бақувват, гирдиғум гавдасига чоғ кетмон обдон ярашиб турибди.

Энди олтинчисига келайлик. У, айтганимиздай, эски ёзув столи ёнида (стол устида чанг-ғубор қўнган телефон аппарати ҳам бор) тахтадай койиб туради. Кўзи қандайлиги маълум эмас, чунки у кўзойнак тақади. Қорача юзида одамга лоп этиб кўринадиган нарса шу кўзойнак. Лекин у бошқалардан бу билангина фарқ қилмайди. Фарқи яна шундаки, аввало, ҳали айтганимиздай, стол ёнида қотиб туради, шунга боғлаб қўйилгандай. Сўнгра ишламайди. Бир замонлар, ёшлигида, мана бу «Ҳурмат тахтаси»ии ташкил этиб уни ҳамма кўзларнинг суратлари билан. ғорнинг пештоқини эса шиор билан безаб қўйган. Эндиликда шуларнинг таъсирини кузатиб, қимир этмас миясини ишлатиб турибди.

Еттинчи киши, қўлида кетмони билан, кейинроқ етиб келди. Унинг бўйи паст ҳам эмас, баланд ҳам эмас. ўзи кетмон билан қучоқлашиб туғилгандай, юмалоқ. Тепаликнинг орқа томонидан чиқиб келиб, пастга юмалаб тушгандай бирдан пайдо бўлди.

— Ҳа, шу ерни ковлаш керак эканми? — деб сўради келасолиб:

— Нега ковлаш керак экан?

— Ҳоким Тўраевич айтганлар! — деди Иккинчи.

— Ҳа ундай бўлса… — деб кафтига туфлади-да. барини белига қистириб, ишга тушди. Энди унга шу ерни ковлаш керак эканлиги ҳам, Нега ковлаш кераклиги ҳам аён эди. Офтобда қорайган пешонасига шаррос тер қалқиди.

Лекин унда яна савол туғилди. У бошқалардан мана шу ўринсиз саволлари билан ажралиб турарди.

— Ана у киши нимага ишламаяпти? — деди у ёзув столи ёнида тахтадай қотиб турган Олтинчига ишора қилиб. Унинг бу қадар серсаволлигига ҳам ҳайрон бўлиб, ҳам ғаши келиб турган Биринчи ишдан бош кўтармай тўнғиллади:

— Тепадаги шиорнн ўқимадингми?

— Ўқиш керакми? — деб сўради Еттинчи.

— Яна савол беради-я. Мунча саволи кўп экан?

Кейин шиорни ўқиди: «Қўшимча мажбуриятни муддатадан олдин бажарамиз!»

Унинг овозини эшитгач, қизил алвондаги безаклар бирдан жонланиб кетгандан, ҳамма анқайиб тепага қаради.

— Ана энди тушундингми? — деди Биринчи Еттинчига. Кейин қотиб турган Олтинчига ишора қилди: — У ана шуни ғоявий жиҳатдан таъминлайди.

Афтидан, Биринчи кўп нарсани билар, шиорни ҳам ўқиган экан шекиллию, камтар экан-да. Тарбия кўрган одам камтар бўлиши керак. Каттаодамлар бор, кичкина одамлар бор. Кичкина, камтар одам ҳаргиз ўз хаёлларига изн беравермаслиги керак. Ҳадеб савол ҳам бераверма, дедй ўзига ўзи Еттинчи.

Шу билан гап-сўз тиниб қолди, астойдил меҳнат қилишга шарт-шароит туғилди.

Тупроқ шовуллайди. Бетиним, бир маромда, ҳамма ерда тупроқ шовуллайди. Телефонли стол ёнида турган Олтинчинпиг хаёлига «Меҳнат поезияси!» дегаи таниш сўз бирикмаси келади, қорача юзлари ёришади.

Шундай жимликда ғайритабиий бир шитирлаш эшитилади. Икки

марта эшитилди. Савол бераверишнакадар ноқулай бўлса ҳам, Еттинчи ўзини тиёлмади:

— Бу, дейман, жуда ичкарига ўйиб кириб кетдик-ку, тепамиз ўпирилиб босиб қолмасмикин?

— Босмайди. Босмайди дейишган, — деди Учинчи билан Тўртинчи баробарига бўш замбилни ерга қўйиб.

— Ҳа ундай бўлса… — дея, хотиржам бўлиб кажавага тупроқ ташлай бошлади Еттинчи. Тепаликнинг босиб қолмаслигига энди ишончи комил эди, қорача манглайидан меҳнат терини сидириб ташлади.

Лекин бир пастдан кейин ҳалиги шитирлаш яна эшитилди. Илҳомбахш меҳнат жараёнида бунга ким ҳам эътибор берарди. Хиёл ўтиб, кираверишда тепадан топ этиб иккита кесак тушди. Кесаклар ушалиб, сочилиб кетди. Топ этган товушга қайрилиб қарашган ҳам эдики худди ўша жойда тепадан гуп этиб лўмбаздай тупроқ ўпирилиб тушди. Чанг тўзғиб, ташқари кўринмай қолди, яна алланималар гурсиллади. Зимистондай қоронғида чангдан нафаси қайтган одамлар жон ҳолатда аввал уёқ-буёққа югуришиб, кейин гурсиллашу шовуллашлардан қулоқлари ҳам битгач, бир-бирларидан нажот истагандай қўл ушлашиб ўрталиқда гуж бўлиб қолдилар. Даҳшатли гурса-гурслар тинганда ҳам, қулоқларига ишонмай, бир-бирларини қўйиб юборишдан қўрққандек, тирик жон тафтндан умид узолмасдан шу ҳолатда узоқ туриб қолдилар. Ҳеч нарса эшитилмас, ҳеч нарса кўринмас, у дунёдами — бу дунёдами эканликларини билолмагандай гарангсиб, қимир этгани журъат тополмай туравердилар.

Анчадан кейингина қуюқ тўзон аста босилиб аввал ён деворда «Ҳурмат тахтаси» тепасидаги икки чирог хирагина бўлиб кўринди. Одамлар ўз нафасларини эшитиб, бир-бирларининг чангга белангган афти-ангорларинн кўрдилар. Ҳаммага гўё қайтадан жон кирди, тирик эканликларига қувондилар, кўзлари ҳам аста-секин қоронғига ўрганиб ўраб олган қора деворларни илғай бошладилар. Чор атроф куру гумгурс эди. Югура бориб деворларни бир-бир ушлаб, итариб, тепиб кўрдилар. Илгари очиқ турган томон ҳам бутунлан босиб қолган, улар тириклай кўмилган эдилар.

— Э… энди… нима қиламиз? — деди Еттинчи.

Бу чексиз жимликда қора деворлардан титроқ акс-садо берган биринчи журъатли товуш эди. У ҳам бўлса-савол. Шу ҳолатда ҳам савол беради. Еттинчи ўзи бирон жўяли фикр таклиф қилолмайди-ю, савол ташлагани ташлаган.

Аммо шу биринчи садо ҳаммани ҳушига келтирди. Қимирлаб қолдилар, кимдир уст-бошини қоқди. кимдир сал ўзига келиб замбилғалтакка ўтирди, яна кимдир оғзидаги лойни туфлаб ташлади…

Нима қилардик… Ҳеч ким топшириқни бекор қилгани йўқ, ҳар қандай об-ҳаво… тоес ҳар қандай шароитда…

— Ўзи қайси томонии қазиётувдик? — деди бу ваҳимали зимзиёда боши айланиб қолган Иккинчи.

— Мана бу томонни… — Бешинчи қоқила-сурила орқа девор томонга юрди.

— Мана бу ёқ очиқ эди. Мана бу «Ҳурмат тахтаси» — ён девор, демакки… — У гапидан тўхтаб қолди. «Ҳурмат тахтаси» ёнида

Олтинчи ишга тушган эди. У «Ҳурмат тахтаси»ни махсус латта билан артиб, унга Еттинчининг ҳам суратини осиб улгурибди. Ўзи тахтада ҳамма бор, фақат битта жой бўш қолган эди. Энди қарабсизки, тахта очилиб кетибди, худди шундан сиқилиб турган эканми… Чиройли! Чироғлар ҳам унинг тепасида. Ғорни ёритиб турган чироғларми, илғорларми — Олтинчининг юзида мана шу завқли ва ҳайратомуз хитоб порлар эди. У омманинг кайфиятини ажойиб тезкорлик билан пайқайди. Тупроқ тагида қолган шиорни ҳам янгиттан ёзиб осиши керак. Стол тортмасидан тиш парошогини олиб, ишга тушди.

— Тупроқ ташидиган йўл бекилиб қолибдику… — деб баробар гап бошлашди Учинчи ва Тўртиичи! Лекин Олтинчи ишни ғоявий жиҳатдан таъминлаш учун жон чекаётган оғир шароитда ортиқча объектив важҳу касонга чим қулоқ соларди. Ака-укалар тарбия кўрган одамларга хос одоб билан, жим бўлишди. Аммо саволинг бошингдан қолгур Еттинчининг исёнкорлигини тийиб бўладими! У савол берса бўлгани, кимга савол беряпти — ўзигами, бировгами, жавоб оладими — йўқми, бу билан иши йўқ, ичини бўшатиб олади шекиллида. Яна сўради:

— Ахир, аввал бу қора гўрдан қандай чиқиб қутулишни ўйламаймизми?

— Буни ўйлайдиганлар бор, акаси, — деди барини белига қистириб, кетмонни қўлига олган Бешинчи. Ҳозир унинг иши кўп — ҳамма жойда шифтдан тушган кесаклар сочилиб ётибди. — Тепада сендан катта одамлар ўтиришибди. Ўйлашади.

— Сизнинг гапингиз ҳам гап, — деди Еттинчи, — биз кичкина

одамлармиз.

Энди ҳамма ўз ишига киришган эди ҳамки, столдаги телефон чанғ-ғуборни тўзғитиб жиринглаб қолди. Яқинроқда турган Олтинчи трубкани олди.

— Аҳвол қалай? — деган овоз эшитилди.

— Аҳвол ёмон эмас…

Трубкадан келаётган овоз, шубҳасиз, Ҳоким Тўраевичники эди. Ҳамма жим бўлди. Бироқ телефон симлари шикаст еган эканми, қанча нафас ютиб қулоқ олишмасин, барибир уёғини яхши эшитишолмади. Лекин Олтинчи тошпириқнни яхши уққан эди, оммага етказди.

— Ҳоким Тўраевич, аввало, қора кўзларга менинг саломимни етказинг, дедилар.

— Ана, айтмадимми, ўйлайдиган катталаримиз бор, акаси, — деди Бешинчи киприкларини қўлқопи билан артиб.

— Ҳа, ўйлашяпти, — давом этди Олтинчи. — Ғордагиларни қутқаришни ўйладик, дедилар. Аммо биз ташқаридан қазийлик десак бу хавфли экан, тепаликнинг бирор жойи бутунлай босиб қолиши бор. Шунинг учун топшириқ бундай: Ўзларингиз шароитга қараб эҳтиёт билан мустақил ҳаракат қилинглар, дедилар. Топшириқни олгандан кейин ҳамма эркин, чуқур сўраб олиб, хотиржам бўлди. Худди қора ер қаърининг зим-зиё тутқинлигидан бир мўъжиза билан қутулиб, бирдан ёруғликка чиққандай, яйраб ўтириб қолдилар. Ҳоким Тўраевичнинг овозидан эриброқ ўтирган Биринчи Еттинчига қаради:

— Ҳаммамиз учун ҳурматли Ҳоким Тўраевич доно одам-да,

топганини қаранг: «Қора кўзлар!» Муомала деб буни айтади. Қаранг, ҳеч кимни бошқалардан ажратиб ҳам атамайди, ҳеч кимни хафа ҳам қилмайди. Ҳаммага ёқимли — «қора кўзлар»! Шу кенглиги оммага маъқулда каттамизнинг.

— Зўр, зўр. Гапга жуббо кийдирадилар.

— Ҳеч-да. Чунончи, мана сени отинг билан айтиб, алоҳида атаса, сен ҳовлиқиб, бир қарич ўсиб, яна, худо сақласин, очидиб кетиб, ҳамма ёқни саволга тўлдириб ташлармидинг! Шундай эмасми?

— Шундай.

— «Қора кўзлар» деганда эса ҳамма бир қолипдан чиққандай баб-баравар. Ҳеч ким ҳовлиқмайди ҳам, камситилмайди ҳам.

— Ҳа.

Еттинчи «ҳа» дедию, лекин яна саволпарастлиги тутиб, ўрнидан туриб кетди.

— Ҳай, биродарлар, айтганча, бу мустақил ҳаракат ҳаракат қилинглар, дегани қанақа бўлади?

— Ўзларинг билиб йўлини топинглар деганидир-да.

— Ўзимиз қаёқдан биламиз, кўрсатма бўлмади-ку? Еттинчининг «саволчи»лигига ўрганиб, бунга парво қилмай қўйган одамлар бу сафар хушёр тортишди. Чиндан ҳам, ўз билгича иш қилиш мумкин эканми, буниси қанақа бўлади?

— Телефон қилиш керак, айтишсин! — деди Иккинчи.

— Телефон қилиб бўлар эканми. Телефон бир томонлама-ку.

— Қандай «бир томонлама»? — деди Еттинчи.

— У томондан гапириб бўлади, бу томондан — йўқ. Уқдингми?

— Қандай?— деди. Сира тинчимади бу «саволчи». Гўё фақат у

ҳамма нарсани билиши керак. Дарров била қолиши керак. Биринчи унга яна тушунтириб қўйишга мажбур бўлди:

— Менга қара, телефон икки томонлама ишласа, тартиб бўладими! Сен телефон қилсанг, мен телефон қилсам, сен билан менга ўхшаганлар нечта? Ҳоким Тўраевич бўлса…

«Нима қиламиз бўлмаса?» — бу савол ҳамманинг ҳам кўнглида бор эди. Бу «саволпараст» подани булғатди шекиллида. Биринчи марта бундай безовта бўлишлари. Руҳий безовталик ёмон экан, ҳаловат қочди. Бу қийноқдан кўра, тепаликни ўша кўрсатилган жойдан қазийверган осонроқ эди. Кавлайверилса бир жойдан чиқиладику ахир.

— Биз янги кўрсатма олдик, демакки, эскиси бекор бўлди. Янги кўрсатма шундан иборатки, мустақил ҳаракат қилиш керак, — деди Олтинчи қоғозига қараб қироат билан. — Бу аввалгисидан мушкулроқ албатта. Аммо шундай бўлиши қонуний. Чунки тошпириқлар тобора оғирлашиб бормаса олға қараб силжиш бўлмайди.

— Бир жойдан ковлаб, тешиб чиқиши керак. Ҳаво кирсин, йўл очилсин.

— Ундай кўрсатма бўлган эмас…

— Қайси томонни ковлаймиз?

— Ҳа мана, ўпирилиб тушган томонни. Йўл ўша ёқда.

— У томонни ковлашга ким кўрсатма беради?

— Бўлмаса бир бошлиқ сайлаймиз. Ўша нима деса — шу.

— Йўғе… — деди Биринчи қўрқиб. — Тепада бошлиғимиз туриб, яна бировни сайлаш уни тан олмасликка ўхшаб кетмайдими?

— Кичкина… Кичкинагина бир бошлиқча сайлаймизда. Бизга бўлаверади.

— Кимни?

— Мана, сизни, масалан, — дейишди ака-укалар. Биринчининг мўйи тикка бўлиб, сапчиб тушди.

— Мени?.. Сени ким тайинлади, деса… Йўқ, тарбия кўрган одаммиз, ўзбошимчалик бўлади. Аввало юқоридан менга ишонч билдирилиши… — у бир томонлама телефонга мунғайиб қараб қўйди.

— Йўқ, биродарлар, — деди Иккинчи, — сайлови нимаси. Ҳар ким ўзига бошлиқ сайлаб олаверса… Топшириқнинг ҳар бир сўзини диққат билан эшитдинглар: «Эҳтиёт билан» деган жойи бор. Бу донолик билан айтилган. Эҳтиёт бўлинмаса, мустақилликнинг мана шундай хавфли томонлари бор.

— Жуда мушкул нарса эканда… — деди Бешинчи кетмонини суяб ўтираркан. Кейин у бўхчасидан нон, майиз, талқон олиб, қийиқчасини ерга ёзди. Буни кўриб бошқалар ҳам очиққанини сезди чоғи, бири белбоғдан, бири тўрхалтадан у бу олиб ўртага тўкди. Тортишувлардан чарчаганликлари ҳам энди билинди. Шунча тепаликни ўйиб, шунча турпоқ ташиб мунчалик чарчамаган эдилар. Чиндан ҳам мушкул экан…

У бу тамадди қилгандан кейин, аъзойи баданлари бўшашиб, уйқу тортиб турса ҳам, хотиржам бўлолмас, бехаловат эдилар. Озиқ-овқатнинг ҳодини олдими. пойгак томонга каламуш югуриб ўтди.

— Ҳув, падарингга лаънат!— деди иштаҳаси қочиб, кўнгли бетинч

бўлиб ўтирган Еттинчи. Энди унинг саволи ҳам қолмаган эди. Тўғрироғи — бир-бирига мингашган чигал-чирмов саволлар уни енгган, дармонини қуритган эди. У ҳам энди лоқайд бўлиб қолди, кўпга келган тўй, бошқаларга нима бўлса, унга ҳам шуда.

— Тўхта, тўхта!— деди Иккинчи шу маҳал ҳовлиқиб. Ака-ука Учинчи-Тўртинчиларнинг «дастурхон» қилиб ёйган кўк қоғозини тортиб олди. Ундаги пиёла юмалаб, иккн ҳовуч жийда, туршак, яна алланималар сочилиб кетди. Ака-укаларнинг оғзи очилиб қолди. Иккинчи қўлидаги кўк қоғозга тикилган эди. Қоғоз ғижимланиб, йиртилиб кетган, чети ҳўл, бир бурчаги бутунлай йўқ.

— Менга қаранглар! Мана бу… Ахир бу…

Ҳамма унга қараб энгашди. Иккинчи ғира-шира қоғоздаги катта ҳарфларни ҳижжалаб ўқишга ҳаракат қиларди.

— Инс… Инс…

— Инси-жинс!? Вой-дод!

— Ўзингни бос, хурсандчилик-ку қайтага… «Инс… инстр… «Буёғи сал йиртилибди, аттанг», — деди. Иккинчи қоғознинг йиртилган, букланган жойини бармоғи билан текислаб, ўқиди: — «Инстр — укуктсия» Инструктсия!

— А? — деди ака-ука баробарига, Ҳамма олдидаги таомини унутган эди.

— Инструктсия?

— Ҳа-да. Мана! Инструктсия топилди, биродарлар!— деди Иккинчи атрофида чарақлаган қора кўзларга тикилиб. Ўзи ҳам хазина топгандай, ўлимга маҳкум этилган дўстларининг нажоткоридай бахтиёр эди, очилиб кетди: — Маданий жамиятда

яшаймиз, азизлар. Бундай жамиятда инсон ҳеч қандай вазиятда ҳам йўл-йўриқсиз қолмайди!

Инструктсия — бамисоли мушкули кушод. Толиққан вужудларга ҳаловат қайтиб келди. Овқат, чарчоқ, руҳий хотиржамлик, бу омад ҳаммани элитди. Кечадан бери ухламаган одамлар ғам-ташвишдан ариб, оёқларини бемалол узатдилар, аъзойи баданлари роҳатдан ҳалимдай бўшашиб уйқуга толдилар. Энди мириқиб ором олса ҳам бўлади, аҳа, яхшилаб ҳордиқ чиқариш керак, эртага аниқ, тайинли ишлар турибди. Қаёқдадир каламуш шитирлаяпти. Шитирласа шитирлайверсин…

Эртасига нонуштадан кейин ҳамма бел боглаб енг шимариб бўлганида Иккинчи чироғ тагига бориб «Инструктсия»ни ўқий бошлади.

Ҳамма тиловат сомедек жим ўтирарди.

— «Инструктсия» — деб ўқиди Иккинчи, — «Бирламчи модда. Массани… »

— Массани?

— Ҳа, оммани дегани. «Массани ҳарорат селтсия бўйича — 5° дан паст бўлмаган салқин жойда сақлаш керак».

— Ҳа салқин жойда.

— «Иккиламчи… » буниси йиртилибди. «Тўртламчи модда. Ўйлаб бўлгандан кейин… қўлларни албатта, ювиб ташлаш керак»

— Ювдик, ювдик!

— Тўхтанглар!— деди ака-укалардан бири, Тўртинчи — Тўхтанглар, биродарлар… бу… «ўйлаб» эмас, «ўйнаб», «ўйнаб бўлгандан кейин» яъни, Кичкина ўғлим қўғирчоқ-одам ясайман деб

хархаша қилаверганидан, пластелин олиб бериб эдим, бу ўшанинг қоғози… Нон ўраб келган эканман, биродарлар!

Юзларидаги шуъла ўчди. Бекорга хурсанд бўлишган экан. «Алданиб қолгон ёмон», деб бекорга айтмайди ашулачи. Кечаги ташвишли, сўлғин ҳолат яна қайтиб келди. Ҳатто Еттинчи ҳам бирон савол тополмади. Иккинчи «Инструктсия»ни жаҳл билан ташлаб юборган экан. Бешинчи уни аста олиб, авайлаб тахлади-да, ички чўнтагига солиб қўйди. Нима бўлса ҳам инструктсия ахир. Ҳурмат қилиши керак тарбия кўрган одам…

Жимжитлик эза бошлади. Яланг ерга кечагидай ғуж бўлиб ўтириб қолишган эди. Қаердадир яна каламуш шитирлагани эшитилди. Ҳар замонда столдаги телефонга қараб қўнишади — кўрсатма бўлиб қолар деган илинж, сира ўлмайдиган умид бор-да…

Жимлик қулоқларда зингиллаб, сабр-бардошни эговлайди. Шу ерда димиқиб ўлиб кетасизлар деса ҳам… ишқилиб, бирон бир кўрсатмача бўлса… Тавба-астағфирулло, шундай ўйга келганлар ҳам бўлди-да. Ахир одамни ҳам ўз-ўзига қўйиб берадими!

Бир пайт бир чинқнриқдан сукут дарз кетди.
— Ануни қаранглар!

Мизғиб ўтирганларнинг қути ўчди. Чинқирган ака-укаларнинг бири — Учинчи эди. Унинг алоҳида овозини энди эшитишди, овози ўткир экан. Ҳамма у кўрсатган пойгак томонга қаради, ўша ердан кичкинагина бир» нуқта ёруғлик қоронғи ғорни тешиб кирган эди. Ингичка шуъла, бир чимдимгина нур ичкари томондаги кўр деворга ўқдай қадалиб турибди.

— Ёруғлик! Ёруғлик! — деб қичқиришди.

— Каламуш тешибди! Каламуш!

Биринчи шу нафис нур тасмасидай сеҳрлангандай, аста ўша томон юриб, девор ёнида тўхтади. Ўйлаб туриб, этиги билан бир тепган эди, икки замбил тупроқ ўпирилиб, шовуллаб тушди-да, одам бўйи тешик очилиб кетди. Кун кириб келгандай бўлди ғорга. Жўра-жамоат шовқин сурон билан ўша томон ошиқди. Биринчи ташқарига қаради:

— Оғизларингдан гуллаб қўймаларинг, каламуш йўл кўрсатди деб! Каттамизниинг ори келиб, бизни нотўғри тушуниб ўтирмасин!…





Asqad Muxtor

CHODIRXAYOL

---

u yerda hamisha shovullab tuproq to‘kilib turadi. Tepalik o‘yilgan joyda tikka devordan, belkuragu ketmondan, sho‘r bosgan yelkalardan, cho‘kich zarbidan, kajava zambillardan shitirlab to‘kilardi. Bu shovullash o‘n besh-yigirma yil naridan kelayotganday, bo‘g‘iq, doim bir maromda allalab eshitiladi.

Tepalik o‘yilib, qo‘raday katta kovak hosil bo‘lgan, ichi nimqorong‘i, hurmat taxtasining tepasida yonib turgan ikkitagina lampochka bilan sal

yorishib turibdi. Bu yerda ish tabiatning injiqliklariga qaramay, qoru qirov, selu jalada ham, sovuqda ham, issiqda ham tinmay davom etadi, tuproq to‘kiladigan jargacha so‘qma yul yaxshi shibbalangan, o‘sha yerdan tepalikning qovjiroq shumgiyayu shilvi, bujg‘un cho‘kirtaklari chirmashib yotgan sirti bemalol ko‘rinadi.

Ishlayotganlarning biri eng ichkarida, orqa devordan tuproqni metin bilan o‘yib berib turibdi. U o‘rta bo‘yli, qorachadan kelgan baquvvat odam, har zarbidan rosa yarim zambil tuproq to‘kiladi, ko‘zlari timqoraligidan g‘ira-shirada ham yiltillab ko‘rinadi. Ikkinchisi tuproqni bel bilan zambil kajavasiga tashlab turibdi. Yorug‘lik orqadan tushgani uchun, miyonagina tiqmachoq gavdasi chodirxayolning qo‘g‘irchoq soyasidek lipillab ko‘rinadi, yaqiniga borgan odam qoracho‘g‘larida ishga astoydil ixlosni o‘tini payqaydi.

Ular o‘zi yetti kishi, ikkitasi, ya’ni uchinchi va to‘rtinchisi zambilda. Bular aka-uka bo‘lsa kerakmi, bir-biriga juda o‘xshash: qorachadan kelgan yuzlari ham, pishiq-puxta jussalari ham quyib-qo‘yganday. Bir-birlarini ko‘z qarashlaridan tushunishadi. Qoracho‘g‘ yilt etdimi — «ko‘tar!» degani, bilinar-bilinmas im qoqdi-mi — «ag‘dar!» degani. Tuproq to‘kiladigan joyga mokiday qatnab, so‘qma yo‘lni shular shibbalagan.

Beshinchisi yorug‘roqda, kiraverishdagi eski yozuv stoli yonida… ha, darvoqe. to‘xtang-chi, yaxshisi bunisini oltinchi deyaylik. Chunki u… Beshinchisi esa ketmonda. U boshqalardan shu bilan ham ajralib turadi, o‘yilgan g‘orning yerini qirib tekislaydi, tuproqdan, dumalagan toshu kesaklardan tozalaydi. O’zi keksaroq bo‘lsa ham hali baquvvat, girdig‘um gavdasiga chog‘ ketmon obdon yarashib turibdi.

Endi oltinchisiga kelaylik. U, aytganimizday, eski yozuv stoli yonida (stol ustida chang-g‘ubor qo‘ngan telefon apparati ham bor) taxtaday koyib turadi. Ko‘zi qandayligi ma’lum emas, chunki u ko‘zoynak taqadi. Qoracha yuzida odamga lop etib ko‘rinadigan narsa shu ko‘zoynak. Lekin u boshqalardan bu bilangina farq qilmaydi. Farqi yana shundaki, avvalo, hali aytganimizday, stol yonida qotib turadi, shunga bog‘lab qo‘yilganday. So‘ngra ishlamaydi. Bir zamonlar, yoshligida, mana bu «Hurmat taxtasi»ii tashkil etib uni hamma ko‘zlarning suratlari bilan. g‘orning peshtoqini esa shior bilan bezab qo‘ygan. Endilikda shularning ta’sirini kuzatib, qimir etmas miyasini ishlatib turibdi.

Yettinchi kishi, qo‘lida ketmoni bilan, keyinroq yetib keldi. Uning bo‘yi past ham emas, baland ham emas. o‘zi ketmon bilan quchoqlashib tug‘ilganday, yumaloq. Tepalikning orqa tomonidan chiqib kelib, pastga yumalab tushganday birdan paydo bo‘ldi.

— Ha, shu yerni kovlash kerak ekanmi? — deb so‘radi kelasolib:

— Nega kovlash kerak ekan?

— Hokim To‘raevich aytganlar! — dedi Ikkinchi.

— Ha unday bo‘lsa… — deb kaftiga tufladi-da. barini beliga qistirib, ishga tushdi. Endi unga shu yerni kovlash kerak ekanligi ham, Nega kovlash kerakligi ham ayon edi. Oftobda qoraygan peshonasiga sharros ter qalqidi.

Lekin unda yana savol tug‘ildi. U boshqalardan mana shu o‘rinsiz savollari bilan ajralib turardi.

— Ana u kishi nimaga ishlamayapti? — dedi u yozuv stoli yonida taxtaday qotib turgan Oltinchiga ishora qilib. Uning bu qadar sersavolligiga ham hayron bo‘lib, ham g‘ashi kelib turgan Birinchi

ishdan bosh koʻtarmay toʻngʻilladi:
— Tepadagi shiornn oʻqimadingmi?
— O’qish kerakmi? — deb soʻradi Yettinchi.
— Yana savol beradi-ya. Muncha savoli koʻp ekan?
Keyin shiorni oʻqidi: «Qoʻshimcha majburiyatni muddatadan oldin bajaramiz!»
Uning ovozini eshitgach, qizil alvondagi bezaklar birdan jonlanib ketgandan, hamma anqayib tepaga qaradi.
— Ana endi tushundingmi? — dedi Birinchi Yettinchiga. Keyin qotib turgan Oltinchiga ishora qildi: — U ana shuni gʻoyaviy jihatdan ta’minlaydi.
Aftidan, Birinchi koʻp narsani bilar, shiorni ham oʻqigan ekan shekilliyu, kamtar ekan-da. Tarbiya koʻrgan odam kamtar boʻlishi kerak. Kattaodamlar bor, kichkina odamlar bor. Kichkina, kamtar odam hargiz oʻz xayollariga izn beravermasligi kerak. Hadeb savol ham beraverma, dedy oʻziga oʻzi Yettinchi.
Shu bilan gap-soʻz tinib qoldi, astoydil mehnat qilishga shart-sharoit tugʻildi.
Tuproq shovullaydi. Betinim, bir maromda, hamma yerda tuproq shovullaydi. Telefonli stol yonida turgan Oltinchinpig xayoliga «Mehnat poeziyasi!» degai tanish soʻz birikmasi keladi, qoracha yuzlari yorishadi. Shunday jimlikda gʻayritabiiy bir shitirlash eshitiladi. Ikki marta eshitildi. Savol beraverish naqadar noqulay boʻlsa ham, Yettinchi oʻzini tiyolmadi:
— Bu, deyman, juda ichkariga oʻyib kirib ketdik-ku, tepamiz oʻpirilib bosib qolmasmikin?

— Bosmaydi. Bosmaydi deyishgan, — dedi Uchinchi bilan To‘rtinchi barobariga bo‘sh zambilni yerga qo‘yib.

— Ha unday bo‘lsa… — deya, xotirjam bo‘lib kajavaga tuproq tashlay boshladi Yettinchi. Tepalikning bosib qolmasligiga endi ishonchi komil edi, qoracha manglayidan mehnat terini sidirib tashladi.

Lekin bir pastdan keyin haligi shitirlash yana eshitildi. Ilhombaxsh mehnat jarayonida bunga kim ham e’tibor berardi. Xiyol o‘tib, kiraverishda tepadan top etib ikkita kesak tushdi. Kesaklar ushalib, sochilib ketdi. Top etgan tovushga qayrilib qarashgan ham ediki xuddi o‘sha joyda tepadan gup etib lo‘mbazday tuproq o‘pirilib tushdi. Chang to‘zg‘ib, tashqari ko‘rinmay qoldi, yana allanimalar gursilladi. Zimistonday qorong‘ida changdan nafasi qaytgan odamlar jon holatda avval uyoq-buyoqqa yugurishib, keyin gursillashu shovullashlardan quloqlari ham bitgach, bir-birlaridan najot istaganday qo‘l ushlashib o‘rtaliqda guj bo‘lib qoldilar. Dahshatli gursa-gurslar tinganda ham, quloqlariga ishonmay, bir-birlarini qo‘yib yuborishdan qo‘rqqandek, tirik jon taftndan umid uzolmasdan shu holatda uzoq turib qoldilar. Hech narsa eshitilmas, hech narsa ko‘rinmas, u dunyodami — bu dunyodami ekanliklarini bilolmaganday garangsib, qimir etgani jur’at topolmay turaverdilar.

Anchadan keyingina quyuq to‘zon asta bosilib avval yon devorda «Hurmat taxtasi» tepasidagi ikki chirog xiragina bo‘lib ko‘rindi. Odamlar o‘z nafaslarini eshitib, bir-birlarining changga belangan afti-angorlarinn ko‘rdilar. Hammaga go‘yo qaytadan jon kirdi, tirik ekanliklariga quvondilar, ko‘zlari ham asta-sekin qorong‘iga o‘rganib o‘rab olgan qora devorlarni ilg‘ay boshladilar. Chor atrof kuru gumgurs

edi. Yugura borib devorlarni bir-bir ushlab, itarib, tepib koʻrdilar. Ilgari ochiq turgan tomon ham butunlan bosib qolgan, ular tiriklay koʻmilgan edilar.

— E… endi… nima qilamiz? — dedi Yettinchi.

Bu cheksiz jimlikda qora devorlardan titroq aks-sado bergan birinchi jur'atli tovush edi. U ham boʻlsa-savol. Shu holatda ham savol beradi. Yettinchi oʻzi biron joʻyali fikr taklif qilolmaydi-yu, savol tashlagani tashlagan.

Ammo shu birinchi sado hammani hushiga keltirdi. Qimirlab qoldilar, kimdir ust-boshini qoqdi. kimdir sal oʻziga kelib zambilgʻaltakka oʻtirdi, yana kimdir ogʻzidagi loyni tuflab tashladi…

Nima qilardik… Hech kim topshiriqni bekor qilgani yoʻq, har qanday ob-havo… toes har qanday sharoitda…

— O'zi qaysi tomonii qaziyotuvdik? — dedi bu vahimali zimziyoda boshi aylanib qolgan Ikkinchi.

— Mana bu tomonni… — Beshinchi qoqila-surila orqa devor tomonga yurdi.

— Mana bu yoq ochiq edi. Mana bu «Hurmat taxtasi» — yon devor, demakki… — U gapidan toʻxtab qoldi. «Hurmat taxtasi» yonida Oltinchi ishga tushgan edi. U «Hurmat taxtasi»ni maxsus latta bilan artib, unga Yettinchining ham suratini osib ulguribdi. O'zi taxtada hamma bor, faqat bitta joy boʻsh qolgan edi. Endi qarabsizki, taxta ochilib ketibdi, xuddi shundan siqilib turgan ekanmi… Chiroyli! Chirogʻlar ham uning tepasida. G'orni yoritib turgan chirogʻlarmi, ilgʻorlarmi — Oltinchining yuzida mana shu zavqli va hayratomuz xitob porlar edi. U ommaning kayfiyatini ajoyib tezkorlik bilan payqaydi.

Tuproq tagida qolgan shiorni ham yangittan yozib osishi kerak. Stol tortmasidan tish paroshogini olib, ishga tushdi.

— Tuproq tashidigan yo‘l bekilib qolibdiku… — deb barobar gap boshlashdi Uchinchi va To‘rtiichi! Lekin Oltinchi ishni g‘oyaviy jihatdan ta’minlash uchun jon chekayotgan og‘ir sharoitda ortiqcha ob’ektiv vajhu kasonga chim quloq solardi. Aka-ukalar tarbiya ko‘rgan odamlarga xos odob bilan, jim bo‘lishdi. Ammo savoling boshingdan qolgur Yettinchining isyonkorligini tiyib bo‘ladimi! U savol bersa bo‘lgani, kimga savol beryapti — o‘zigami, birovgami, javob oladimi — yo‘qmi, bu bilan ishi yo‘q, ichini bo‘shatib oladi shekillida. Yana so‘radi:

— Axir, avval bu qora go‘rdan qanday chiqib qutulishni o‘ylamaymizmi?

— Buni o‘ylaydiganlar bor, akasi, — dedi barini beliga qistirib, ketmonni qo‘liga olgan Beshinchi. Hozir uning ishi ko‘p — hamma joyda shiftdan tushgan kesaklar sochilib yotibdi. — Tepada sendan katta odamlar o‘tirishibdi. O’ylashadi.

— Sizning gapingiz ham gap, — dedi Yettinchi, — biz kichkina odamlarmiz.

Endi hamma o‘z ishiga kirishgan edi hamki, stoldagi telefon chang-g‘uborni to‘zg‘itib jiringlab qoldi. Yaqinroqda turgan Oltinchi trubkani oldi.

— Ahvol qalay? — degan ovoz eshitildi.

— Ahvol yomon emas…

Trubkadan kelayotgan ovoz, shubhasiz, Hokim To‘raevichniki edi. Hamma jim bo‘ldi. Biroq telefon simlari shikast yegan ekanmi, qancha

nafas yutib quloq olishmasin, baribir uyog‘ini yaxshi eshitisholmadi. Lekin Oltinchi toshpiriqnni yaxshi uqqan edi, ommaga yetkazdi.

— Hokim To‘raevich, avvalo, qora ko‘zlarga mening salomimni yetkazing, dedilar.

— Ana, aytmadimmi, o‘ylaydigan kattalarimiz bor, akasi, — dedi Beshinchi kipriklarini qo‘lqopi bilan artib.

— Ha, o‘ylashyapti, — davom etdi Oltinchi. — G’ordagilarni qutqarishni o‘yladik, dedilar. Ammo biz tashqaridan qaziylik desak bu xavfli ekan, tepalikning biror joyi butunlay bosib qolishi bor. Shuning uchun topshiriq bunday: O’zlaringiz sharoitga qarab ehtiyot bilan mustaqil harakat qilinglar, dedilar.

Topshiriqni olgandan keyin hamma erkin, chuqur so‘rab olib, xotirjam bo‘ldi. Xuddi qora yer qa’rining zim-ziyo tutqinligidan bir mo‘‘jiza bilan qutulib, birdan yorug‘likka chiqqanday, yayrab o‘tirib qoldilar. Hokim To‘raevichning ovozidan eribroq o‘tirgan Birinchi Yettinchiga qaradi:

— Hammamiz uchun hurmatli Hokim To‘raevich dono odam-da, topganini qarang: «Qora ko‘zlar!» Muomala deb buni aytadi. Qarang, hech kimni boshqalardan ajratib ham atamaydi, hech kimni xafa ham qilmaydi. Hammaga yoqimli — «qora ko‘zlar»! Shu kengligi ommaga ma’qulda kattamizning.

— Zo‘r, zo‘r. Gapga jubbo kiydiradilar.

— Hech-da. Chunonchi, mana seni oting bilan aytib, alohida atasa, sen hovliqib, bir qarich o‘sib, yana, xudo saqlasin, ochidib ketib, hamma yoqni savolga to‘ldirib tashlarmiding! Shunday emasmi?

— Shunday.

— «Qora koʻzlar» deganda esa hamma bir qolipdan chiqqanday bab-baravar. Hech kim hovliqmaydi ham, kamsitilmaydi ham.

— Ha.

Yettinchi «ha» dediyu, lekin yana savolparastligi tutib, oʻrnidan turib ketdi.

— Hay, birodarlar, aytgancha, bu mustaqil harakat harakat qilinglar, degani qanaqa boʻladi?

— O’zlaring bilib yoʻlini topinglar deganidir-da.

— O’zimiz qayoqdan bilamiz, koʻrsatma boʻlmadi-ku? Yettinchining «savolchi»ligiga oʻrganib, bunga parvo qilmay qoʻygan odamlar bu safar xushyor tortishdi. Chindan ham, oʻz bilgicha ish qilish mumkin ekanmi, bunisi qanaqa boʻladi?

— Telefon qilish kerak, aytishsin! — dedi Ikkinchi.

— Telefon qilib boʻlar ekanmi. Telefon bir tomonlama-ku.

— Qanday «bir tomonlama»? — dedi Yettinchi.

— U tomondan gapirib boʻladi, bu tomondan — yoʻq. Uqdingmi?

— Qanday?— dedi. Sira tinchimadi bu «savolchi». Goʻyo faqat u hamma narsani bilishi kerak. Darrov bila qolishi kerak. Birinchi unga yana tushuntirib qoʻyishga majbur boʻldi:

— Menga qara, telefon ikki tomonlama ishlasa, tartib boʻladimi! Sen telefon qilsang, men telefon qilsam, sen bilan menga oʻxshaganlar nechta? Hokim Toʻraevich boʻlsa…

«Nima qilamiz boʻlmasa?» — bu savol hammaning ham koʻnglida bor edi. Bu «savolparast» podani bulgʻatdi shekillida. Birinchi marta bunday bezovta boʻlishlari. Ruhiy bezovtalik yomon ekan, halovat qochdi. Bu qiynoqdan koʻra, tepalikni oʻsha koʻrsatilgan joydan qaziyvergan

osonroq edi. Kavlayverilsa bir joydan chiqiladiku axir.

— Biz yangi koʻrsatma oldik, demakki, eskisi bekor boʻldi. Yangi koʻrsatma shundan iboratki, mustaqil harakat qilish kerak, — dedi Oltinchi qogʻoziga qarab qiroat bilan. — Bu avvalgisidan mushkulroq albatta. Ammo shunday boʻlishi qonuniy. Chunki toshpiriqlar tobora ogʻirlashib bormasa olgʻa qarab siljish boʻlmaydi.

— Bir joydan kovlab, teshib chiqishi kerak. Havo kirsin, yoʻl ochilsin.

— Unday koʻrsatma boʻlgan emas…

— Qaysi tomonni kovlaymiz?

— Ha mana, oʻpirilib tushgan tomonni. Yoʻl oʻsha yoqda.

— U tomonni kovlashga kim koʻrsatma beradi?

— Boʻlmasa bir boshliq saylaymiz. O'sha nima desa — shu.

— Yoʻgʻe… — dedi Birinchi qoʻrqib. — Tepada boshligʻimiz turib, yana birovni saylash uni tan olmaslikka oʻxshab ketmaydimi?

— Kichkina… Kichkinagina bir boshliqcha saylaymizda. Bizga boʻlaveradi.

— Kimni?

— Mana, sizni, masalan, — deyishdi aka-ukalar. Birinchining moʻyi tikka boʻlib, sapchib tushdi.

— Meni?.. Seni kim tayinladi, desa… Yoʻq, tarbiya koʻrgan odammiz, oʻzboshimchalik boʻladi. Avvalo yuqoridan menga ishonch bildirilishi…

— u bir tomonlama telefonga mungʻayib qarab qoʻydi.

— Yoʻq, birodarlar, — dedi Ikkinchi, — saylovi nimasi. Har kim oʻziga boshliq saylab olaversa… Topshiriqning har bir soʻzini diqqat bilan eshitdinglar: «Ehtiyot bilan» degan joyi bor. Bu donolik bilan aytilgan. Ehtiyot boʻlinmasa, mustaqillikning mana shunday xavfli tomonlari bor.

— Juda mushkul narsa ekanda… — dedi Beshinchi ketmonini suyab o‘tirarkan. Keyin u bo‘xchasidan non, mayiz, talqon olib, qiyiqchasini yerga yozdi. Buni ko‘rib boshqalar ham ochiqqanini sezdi chog‘i, biri belbog‘dan, biri to‘rxaltadan u bu olib o‘rtaga to‘kdi. Tortishuvlardan charchaganliklari ham endi bilindi. Shuncha tepalikni o‘yib, shuncha turpoq tashib munchalik charchamagan edilar. Chindan ham mushkul ekan…

U bu tamaddi qilgandan keyin, a’zoyi badanlari bo‘shashib, uyqu tortib tursa ham, xotirjam bo‘lolmas, bexalovat edilar.

Oziq-ovqatning hodini oldimi. poygak tomonga kalamush yugurib o‘tdi.

— Huv, padaringga la’nat!— dedi ishtahasi qochib, ko‘ngli betinch bo‘lib o‘tirgan Yettinchi. Endi uning savoli ham qolmagan edi.

To‘g‘rirog‘i — bir-biriga mingashgan chigal-chirmov savollar uni yenggan, darmonini quritgan edi. U ham endi loqayd bo‘lib qoldi, ko‘pga kelgan to‘y, boshqalarga nima bo‘lsa, unga ham shuda.

— To‘xta, to‘xta!— dedi Ikkinchi shu mahal hovliqib. Aka-uka Uchinchi-To‘rtinchilarning «dasturxon» qilib yoygan ko‘k qog‘ozini tortib oldi. Undagi piyola yumalab, ikkn hovuch jiyda, turshak, yana allanimalar sochilib ketdi. Aka-ukalarning og‘zi ochilib qoldi. Ikkinchi qo‘lidagi ko‘k qog‘ozga tikilgan edi. Qog‘oz g‘ijimlanib, yirtilib ketgan, cheti ho‘l, bir burchagi butunlay yo‘q.

— Menga qaranglar! Mana bu… Axir bu…

Hamma unga qarab engashdi. Ikkinchi g‘ira-shira qog‘ozdagi katta harflarni hijjalab o‘qishga harakat qilardi.

— Ins… Ins…

— Insi-jins!? Voy-dod!

— O’zingni bos, xursandchilik-ku qaytaga… «Ins… instr… «Buyog‘i sal yirtilibdi, attang», — dedi. Ikkinchi qog‘ozning yirtilgan, buklangan joyini barmog‘i bilan tekislab, o‘qidi: — «Instr — ukuktsiya» Instruktsiya!

— A? — dedi aka-uka barobariga, Hamma oldidagi taomini unutgan edi.

— Instruktsiya?

— Ha-da. Mana! Instruktsiya topildi, birodarlar!— dedi Ikkinchi atrofida charaqlagan qora ko‘zlarga tikilib. O’zi ham xazina topganday, o‘limga mahkum etilgan do‘stlarining najotkoriday baxtiyor edi, ochilib ketdi: — Madaniy jamiyatda yashaymiz, azizlar. Bunday jamiyatda inson hech qanday vaziyatda ham yo‘l-yo‘riqsiz qolmaydi! Instruktsiya — bamisoli mushkuli kushod. Toliqqan vujudlarga halovat qaytib keldi. Ovqat, charchoq, ruhiy xotirjamlik, bu omad hammani elitdi. Kechadan beri uxlamagan odamlar g‘am-tashvishdan arib, oyoqlarini bemalol uzatdilar, a’zoyi badanlari rohatdan halimday bo‘shashib uyquga toldilar. Endi miriqib orom olsa ham bo‘ladi, aha, yaxshilab hordiq chiqarish kerak, ertaga aniq, tayinli ishlar turibdi. Qayoqdadir kalamush shitirlayapti. Shitirlasa shitirlayversin… Ertasiga nonushtadan keyin hamma bel boglab yeng shimarib bo‘lganida Ikkinchi chirog‘ tagiga borib «Instruktsiya»ni o‘qiy boshladi. Hamma tilovat somedek jim o‘tirardi.

— «Instruktsiya» — deb o‘qidi Ikkinchi, — «Birlamchi modda. Massani… »

— Massani?

— Ha, ommani degani. «Massani harorat seltsiya bo‘yicha — 5° dan

past bo‘lmagan salqin joyda saqlash kerak».

— Ha salqin joyda.

— «Ikkilamchi… » bunisi yirtilibdi. «To‘rtlamchi modda. O’ylab bo‘lgandan keyin… qo‘llarni albatta, yuvib tashlash kerak»

— Yuvdik, yuvdik!

— To‘xtanglar!— dedi aka-ukalardan biri, To‘rtinchi — To‘xtanglar, birodarlar… bu… «o‘ylab» emas, «o‘ynab», «o‘ynab bo‘lgandan keyin» ya’ni, Kichkina o‘g‘lim qo‘g‘irchoq-odam yasayman deb xarxasha qilaverganidan, plastelin olib berib edim, bu o‘shaning qog‘ozi… Non o‘rab kelgan ekanman, birodarlar!

Yuzlaridagi shu’la o‘chdi. Bekorga xursand bo‘lishgan ekan. «Aldanib qolgon yomon», deb bekorga aytmaydi ashulachi. Kechagi tashvishli, so‘lg‘in holat yana qaytib keldi. Hatto Yettinchi ham biron savol topolmadi. Ikkinchi «Instruktsiya»ni jahl bilan tashlab yuborgan ekan. Beshinchi uni asta olib, avaylab taxladi-da, ichki cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Nima bo‘lsa ham instruktsiya axir. Hurmat qilishi kerak tarbiya ko‘rgan odam…

Jimjitlik eza boshladi. Yalang yerga kechagiday g‘uj bo‘lib o‘tirib qolishgan edi. Qaerdadir yana kalamush shitirlagani eshitildi. Har zamonda stoldagi telefonga qarab qo‘nishadi — ko‘rsatma bo‘lib qolar degan ilinj, sira o‘lmaydigan umid bor-da…

Jimlik quloqlarda zingillab, sabr-bardoshni egovlaydi. Shu yerda dimiqib o‘lib ketasizlar desa ham… ishqilib, biron bir ko‘rsatmacha bo‘lsa… Tavba-astag‘firullo, shunday o‘yga kelganlar ham bo‘ldi-da. Axir odamni ham o‘z-o‘ziga qo‘yib beradimi!

Bir payt bir chinqnriqdan sukut darz ketdi.

— Anuni qaranglar!

Mizg‘ib o‘tirganlarning quti o‘chdi. Chinqirgan aka-ukalarning biri — Uchinchi edi. Uning alohida ovozini endi eshitishdi, ovozi o‘tkir ekan. Hamma u ko‘rsatgan poygak tomonga qaradi, o‘sha yerdan kichkinagina bir» nuqta yorug‘lik qorong‘i g‘orni teshib kirgan edi. Ingichka shu’la, bir chimdimgina nur ichkari tomondagi ko‘r devorga o‘qday qadalib turibdi.

— Yorug‘lik! Yorug‘lik! — deb qichqirishdi.

— Kalamush teshibdi! Kalamush!

Birinchi shu nafis nur tasmasiday sehrlanganday, asta o‘sha tomon yurib, devor yonida to‘xtadi. O’ylab turib, etigi bilan bir tepgan edi, ikki zambil tuproq o‘pirilib, shovullab tushdi-da, odam bo‘yi teshik ochilib ketdi. Kun kirib kelganday bo‘ldi g‘orga.

Jo‘ra-jamoat shovqin suron bilan o‘sha tomon oshiqdi. Birinchi tashqariga qaradi:

— Og‘izlaringdan gullab qo‘ymalaring, kalamush yo‘l ko‘rsatdi deb! Kattamizninng ori kelib, bizni noto‘g‘ri tushunib o‘tirmasin!…